

**Ismat Naimov**

Bukhara State University,  
Doctor of Philosophy in History (PhD)

**Shakhnoza Toshpo'latova**

Bukhara State University,  
Master of Ethnography, Ethnology and Anthropology  
Uzbekistan

*Received 4<sup>th</sup> January 2022, Accepted 12<sup>th</sup> January 2022, Online 24<sup>th</sup> January 2023*

**MARRIAGE CEREMONY OF TAJIKS IN THE WORK OF MIKHAIL STEPANOVICH  
ANDREYEV “TADJIKI DOLINI KHUF”**

**Abstract.** In this article M.S.Andreyev's talking about scientific activity, the work “Tajiks of the Khuf Valley” is described as a source of information about the life and culture of Tajiks in the Amudarya upper reaches of the scientist. As a result of Andreyev's scientific research, it is noted that the ethnography of the hufti people of Tajikistan, which was first known to science, is the product of the scientist's scientific research. The marriage ceremony of Tajiks and its conduct in what order. Traditions associated with the marriage ceremony, early marriages and weddings. It is told about matchmaking and post-wedding habits.

**Key words:** Marriage ceremony, early marriage, pitima, “gapzani - truce – makers”, “deal-makers” or “asakoli-elders”, “megurizan”, that is, “escape”, “dzaklay wedding”, that is, “small celebration”.

**ЦЕРЕМОНИЯ БРАКОСОЧЕТАНИЯ ТАДЖИКОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ  
МИХАИЛА СТЕПАНОВИЧА АНДРЕЕВА  
“ТАДЖИКИ ДОЛИНИ ХУФ”**

**Аннотация.** В этой статье М.С.Андреева остановившись на научной деятельности, в работе “Таджики долины Хуф” изложено видение ученого как источника сведений о жизни, культуре таджиков верхнего течения Амударьи. Освещается, что этнография хуттийского народа таджиков, впервые известная науке как результат научных исследований Андреева, является продуктом научных исследований ученого. Церемония бракосочетания таджиков и в каком порядке она проводится. Свадебная церемония, ранние браки и обычаи, связанные со свадьбой. Описаны свадебные и постсвадебные обычаи.

**Ключевые слова:** Церемония бракосочетания, ранний брак, питиш, “гапзани - перемирие” “заклучители сделки” или “асаколи – старейшины”, “мегуризан”, то есть “побег”, “дзаклай свадьба”, то есть “маленький праздник”.

**MIXAIL STEPANOVICH ANDREYEVNING**

**“ТАДЖИКИ ДОЛИНИ ХУФ” ASARIDA TOJIKLARNING NIKOH MAROSIMI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada M.S.Andreyevning ilmiy faoliyati xususida to'xtalib, “Xuf vodiysi tojiklari” asari olimning Amudaryo yuqori oqimidagi tojiklarning hayoti, madaniyati to'g'risida ma'lumot beruvchi manba sifatida qaralishi tahlil qilingan. M.S.Andreyevning ilmiy tadqiqotlari samarasi o'laroq fanga birinchi bo'lib ma'lum bo'lgan tojiklarning xuftiy xalqi

etnografiyasi olimning ilmiy izlanishlari mahsuli ekanligi yoritilgan. Tojiklarning nikoh marosimi va uning qay tartibda o'tkazilishi, erta nikohlar va to'y bilan bog'liq urf-odatlar, sovcilik va to'ydan keyingi odatlar haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Nikoh marosimi, erta nikoh, pitish, "gapzani - sulh tuzuvchilar", "bitim tuzuvchilar" yoki "asakoli – oqsoqollar", "megurizan", ya'ni "qochish", "dzaklay to'y" ya'ni "kichik bayram".

## **KIRISH (INTRODUCTION)**

Jahondagi barcha xalqlarning, etnik birliklarning turlarini kelib chiqishi, turmush tarzi, urf-odatlarini o'rganuvchi fan sohasi sanalgan etnografiyaning rivojiga tadqiqotchi olim M.S.Andreyevning xizmati katta. Binobarin Tojikiston, Qozog'iston, O'zbekiston va Rossiya muzeylarini bezab turgan ko'plab kolleksiyalar, xalqning nozik didini ifodalovchi liboslar, xalq amaliy san'ati yodgorliklari, turli xil mehnat qurollarining ommaga taqdim etilishida olimning xizmati benihoya katta.

1925-yilda Tojikistonni hamda undan tashqarida yashayotgan eroniy xalqlarini o'rganish jamiyati tuzildi. Rus olimlari Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa tojik xalqining tarixi, arxeologiyasi, etnografiyasi va tilshunosligini o'rganishga katta hissa qo'shdilar. Shu munosabat bilan N.V. Xanikov, V.V. Bartold, M.S. Andreev, A.A. Semenovning ilmiy tadqiqotlari, asarlari sharqshunoslik fanining yutug'i bo'lgan [1]. Shunisi ahamiyatliki, Amudaryoning yuqori oqimida yashovchi aholining etnografik kelib chiqishi, turmush tarzi, xulq-atvori, ijtimoiy ligvistikasi, nikoh marosimi haqidagi eng qimmatli ma'lumotlar ham Andreyevga tegishlidir.

## **TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)**

"Xuf vodiysi tojiklari" asarida etnograf olim tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda oilaviy nikohlar va nikoh qurishdan oldin amalga oshirilgan marosimlar, shuningdek, nikoh qurish yoshi, hikoh qurishga qo'yilgan talablarni Xuf vodiysi aholisining o'ziga xos an'analari hisoblanganligiga diqqat e'tibor qaratib, kuyidagi omillar va alohida turkumlarga ajratish hamda tahlil etish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan,

**Erta nikohlar.** Taxmin qilish mumkinki, qadimgi davrlarda nikohlar ancha yoshroq bo'lgan hatto bolalar o'rtasida ham bunday nihokni tez-tez uchratish mumkin. Xuflarning ma'lumotiga ko'ra, o'n sakkiz yoshli yigit, hattoki olti yoshli qizga uylana olgan. Masalan, 1880-yillarda tug'ilgan mashhur xuftiy temirchi va zargar usto Mama-Nazarni ota-onasi yetti yoshida uni yetti yoshli qizga uylantirgan. Er-xotinning balog'atga yetishidan ancha oldin tuzilgan bunday nikohlar boshqa qo'shni mamlakatlarda bo'lgani kabi Xufda ham faqat apotropik asosda – "(baxtsizlikni) oldini oluvchi nikoh" – "niko(x) shaklida uchragan [2]. Bu quyidagi sharoitlarda amalga oshirilgan. Ko'pchilik insonlar oilada o'g'il farzand tug'ilgan taqdirda, ota-ona bu bolaning ham o'limidan qo'rqib, yaqinda tug'ilgan qiz bilan nikohini tuzib, uni qutqarishga shoshilishgan. Bu uni boshiga tushgan baxtsizlikdan himoya qilishi mumkinligiga ishonishgan. Bunday erta nikoh ba'zan hatto bir yoshga to'lmagan chaqaloqlar orasida ham sodir bo'lgan. Taklif etilgan mulla rasmiy nikoh marosimini o'tkazgan, mehmonlar bunday to'yda ham, kattalarning to'ylarida ham zavqlanishgan, lekin kamroq odam yig'ilib, katta xarajatlarga yo'l qo'yilmagan. Bunday nikoh marosimidan so'ng, turmush

qurganlarning keyingi hayotida hech qanday qonuniy rasmiyatlar talab qilinmagan. Har bir chaqaloq o'z uyida yashab o'sgan va balog'atga yetganida, ikkala tomon ham yoshlar uchun, birga yashash vaqti keldi deb qaror qilishgan, kelinni erining uyiga tantanali ravishda olib kelishgan va bu uyga kirish esa haqiqiy nikoh deb aytilgan. M.S. Andreyev "Xuf vodiysi tojiklari" asarida tojiklarning nikoh marosimi haqida quyidagicha ma'lumotlarni yozib qoldirgan: "Xufdagi erkaklarning nikoh yoshi o'rtacha 15-20 yosh bo'lib, qizlar esa taxminan 12 yoshda turmushga berilgan. Nikoh uchun eng munosib yosh taxminan 15 yosh", - deb hisoblangan.

**Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh chegaralari.** Qarindoshlik tomonidan qo'yilgan ta'qiq bilan bog'liq holda nikohlar juda keng tarqalgan. Xuftlar faqat o'zining singlisi, jiyani va amakisining bevasi bilan turmush qurishi mumkin bo'lmagan. Shuningdek, o'g'il bolalar o'z singlisiga yoki onasiga albatta, o'gay onasiga uylanishi qa'tiyan man qilingan. Amakivachchalar o'rtasidagi nikohlar (pitish) ga ruxsat etilgan, hattoki bu nikoh eng maqbul nikoh deb hisoblangan. Amakivachchalar o'rtasidagi nikohlar eng keng tarqalgan Go'ron va Yazgulem aholisida, xuddi Xufda bo'lgani kabi, bunday nikohlarning asosiy afzalligi shundaki, turmush qurganlarning ajdodlari umumiy bo'lgan.

**Er-xotin o'rtasidagi nikohdan iqtisodiy foyda ham hisobga olingan.** Agar qiz otasining yagona merosxo'ri bo'lsa va undan o'zining barcha mol-mulkini, shu jumladan yer uchastkalarini meros qilib olishi kerak bo'lgan, meros qonuniga ko'ra, ayol erkak merosxo'rlar ishtirokida, u amakivachchasi bilan yoki bunday bo'lmasa, boshqa qarindosh bilan nikoh qurishi nafaqat orzu qilingan, balki majburiy ham edi, chunki bu yo'l bilan otaning oilasida yerning saqlanishi ta'minlangan. Ota-ona farzandini uylantirish istagi paydo bo'lganda avval, ular o'zlari mo'ljallangan qizni uyiga sovchilikga borishga qaror qilishgan. Sovchilikning o'zi "xikhay" (xikhai) deb ataladi. Sovchilik instituti tojiklarda "gapzani - sulh tuzuvchilar", "bitim tuzuvchilar" yoki "asakoli – oqsoqollar" deb nomlanadi. Buning sababi, sovchilikka odatda, asosan, qariyalar brogan. Ko'pincha rasmiy rad etish sharmandaligidan qo'rqib, kuyovning otasi birinchi navbatda kelinning otasi bilan tinchgina gaplashishga va uning taklif qilingan nikohga munosabatini bilishga harakat qilingan. Agar oldindan kelishuv bo'lmasa, kelish mutlaqo kutilmagan bo'lsa, birinchi marta sovchilar kelinning otasini ko'ndirish uchun yana ikki oqshom kelishadi, agar nikoh maqbul deb topilsa, uchinchi marta rozilik berishadi. Tojiklarda unashtirish marosimi "dzaklay to'y", ya'ni "kichik bayram" deb ataladi. Xufada "qing'ol-bozi" odati mavjud. "Fotiha to'yi" dan keyin kelin va bo'lg'usi kuyovning yangi qarindoshlaridan qochib yurishni boshlaydi. Tojiklarda ushbu odat "megurizan", ya'ni "qochish" deb ataladi [3].

Uchrashuv uchun tun kunduzdan ko'ra afzalroq tanlangan, chunki xuftlar tushuntirganidek, tun buyuk "buzurg" hisoblanadi. "Qorong'u tun gunohlarni kechiradi, orzularning ro'yobga chiqishiga yordam beradi", deb hisoblashishgan. Ayniqsa, ulug', muqaddas to'rt kecha hisoblangan haftada, odatda, o'zaro kelishuv uchun tanlangan: juma kuni kechqurun, payshanba, shanba yoki chorshanba kuni keladigan tun. Sovchilar o'zlari bilan kichikroq patir non, qatmol, tut, un va mevalardan iborat tugun olib brogan. Mehmonlani siylash uchun mezbon tomonidan bir xil taom - mirraugan tortilgan.

To'y bayrami "sur"<sup>1</sup> deb ataladi. Xufdagi to'y "gats-sur" (gap-sur), ya'ni "qizning ziyofati" (ba'zan) yoki oddiygina sur - bayram deb ataladi va uning maxsus nomi yo'q. Qadimdan Xuf vodiysida Nikoh to'ylar ikki kun (hozirgi zamonaviy tojik to'ylari esa 7 kun) davom etgan: kuyovning uyidagi turli o'yin-kulgilar bilan birga kun bo'yi va hatto undan keyin kun bo'yi davom etadigan ziyofat, keyin esa ertasi kuni kelinning uyidagi ziyofat, u yerga barcha mehmonlar tashrif buyirishgan. Nikoh marosimidan so'ng, kelin kuyovning uyiga (agar kelin beva bo'lib so'ng turmush qurayotgan bo'lsa, kechasi) odatda erta tongda olib ketilgan.

**Kuyovning uyidagi marosimlar.** Avvalgidek "sho'y-salom" da, tong otishi bilan "jattar" deb atalgan xabarchi yuboriladi. Ilgari to'ylarda boy odamlarning kambag'al odamlardan farqli ravishda, bu safar xabarchilar hamma uylarni aylanib o'tirishmagan, faqat otlari borlarga taklifnomalar berishgan. Har qanday xalq to'ylarida bo'lgani kabi, Xufda ham to'yga chaqirilgan mehmonlar uchun maxsus noz-ne'matlar katta ahamiyatga ega. Kuyovning otasi to'rtta bunday taomni tashkil qiladi: 1) shui<sup>1</sup> - cho'chqa yog'i "kuyovga ta'zim qilish, odatda to'ydan bir necha kun oldin o'tkaziladigan marosim; 2) "joma-buron" - "kiyim kesish" - kuyovning uyiga yig'ilib, kiyim tikadigan ayollar uchun noz-ne'mat; 3) to'y marosimidan oldin kuyovning uyida barcha atrofdagilar-erkaklar va ayollar uchun uyushtirilgan bazmda tayyorlanadigan asosiy taom. Bu aslida to'y bayrami "sur" yoki "mastai gyardan" (mastai-gardan) deb ataladi; 4) "hervo"<sup>2</sup> ya'ni "sho'rva". Bunday sho'rva yoki pishiriq suradan keyin ertalab pishiriladi va kelin ketayotganda barcha to'y a'zolariga tarqatiladi [4].

To'yning ertasi kuni yana mehmonlar kuyovning uyiga yig'iladi. Ular ertalab yoki chosh, ya'ni kunning yarmida keladi. Kuyovning otasi kelganlarni turli xil taomlar bilan mehmon qiladi, ushbu odat "yakdega", ya'ni "bir qozondan ovqat yeyish" deb ataladi. Shundan so'ng kuyov sochini olish udumi bajariladi, ya'ni kuyovning sochi olinib, yuviladi. Soch olish udumi so'nggida kuyovga yangi ko'ylak, ishton, ikki juft paypoq (goruk), ikkita xalat, do'ppi va "chalma" kiydiriladi.

To'ydan qirq kun o'tgach, kelinning qarindoshlari kelin-kuyovni ko'rishga boradilar, bu "jaiz-talabi" so'zma-so'z "mahr so'rash" deb ataladi. Hozirda xuftlar yuqorida tilga olingan tashrif chog'ida yoshlarga beriladigan sovg'ani "jaiz" so'zi bilan ifodalaydi. Faqat uchta tashrif bor: 1) kelinning otasiga, 2) onasining akasiga yoki akalarning kattasi, agar ular bir nechta bo'lsa va 3) kelinning xolasiga (onaning singlisiga), agar u boy bo'lsagina tashrif buyura olgan [5].

**Vena to'lovi.** Vena to'lovi haqida gapiradigan bo'lsak, uning o'ziga xos tomoni shundaki, birinchidan, bu qat'iy belgilangan va hamma uchun - kambag'al va boy oilalar bo'lishidan qat'iy nazar bir xil miqdorda to'lash bilgilangan. Vena to'lovi asosan narxlari bozor sharoitida o'zgarib turadigan mahsulotlar, jumladan bug'doy, chorva mollari, go'sht va tillaga nisbat qilib hisoblangan. Ikkinchidan, bu to'lovga kelin otasining ulushi juda oz bo'lib, to'lovning ko'p qismini kelinning onasi olagan. Agar kelinning onasining bir nechta ukalari bo'lsa, ulushni faqat kattasi oladi. Keyingi ikkinchi eng qimmatli ulushni oladigan kishi kelinning xolasi yana ona tomondan [6]. Amaki va amma vena taqsimotidan hech narsa olmagan, shuning uchun to'y xarajatlarini ko'tarmaganlar ham. Ona tomondan tog'a yoki xola har doim oilada amaki yoki ammaga qaraganda yaqinroq hisoblangan.

<sup>1</sup> Shuni ta'kidlash kerakki, odatda "sur" so'zi hayotdagi har bir quvonchli voqea uchun bayramni anglatadi: birinchi farzandning tug'ilishi, sunnat, bolaning sochini birinchi marta kesish va hokazo (tojikcha tui so'ziga to'g'ri keladi)

<sup>1</sup> Islom dinida halol hisoblanmagan hayvonlarga nisbatan qo'llaniladi..

<sup>2</sup> Suyuq taom.

“Tojikiston Respublikasida “Urf-odatlar, bayramlar va marosimlarni tartibga solish to‘g‘risida”gi 2007-yilgi qonunga ko‘ra nikoh va sunnat to‘ylari, motam marosimlari, hoji to‘y va hatto tug‘ilgan kun ham qanday nishonlanishi haqida mezonlar kiritilgan. Nonshikanon (fotiha), idonabari<sup>1</sup> (hadya ulashish), modar talbon (ona chaqirdi), padar talbon (ota chaqirdi), chodarkanon (yuz ochar), muborakbozi (tabriklash), rahbandon (yo‘l to‘shish), sarupobinon (kelin-kuyovning kiyimlarini namoyish qilish), choygashtak (qiz majlisi) va boshqa marosimlar hamda kelin-kuyovning qarindosh-urug‘lariga (ota-onasidan tashqari) sovg‘a tarqatish qonun bilan taqiqlandi [7].

Xulosa qilib aytganda, M.S.Andreyev Xuf vodiysi aholisi, tojiklarni o‘rganishda xilma-xil manbalardan va usullardan foydalangan. Olimning ilmiy merosi xuftiylar haqida ularning turmush tarzi, urf-odat va marosimlari umumiy qilib aytganda, etnografiya fanida ahamiyati beqiyos. M.S.Andreyevdan boy etnografik materiallar, qiziqarli yozma manbalar, haqiqiy nodir durdonalar qoldi, deb ayta olamiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCE)**

1. .Акрамова. Х.Ф., Акрамов Н.М. Востоковед Михаил Степанович Андреев (НАУЧНО-БИОГРАФИЧЕСКИЙ ОЧЕРК). – Душанбе: “ИРФОН”, 1973 г.3-5.
2. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Вып. 2. - Душанбе, 1958 г.
3. Дониёров А.Х., Буриев О.Б., Аширов А.А. Марказий Осиё халқлари этнологияси, этногенези ва этник тарихи. Дарслик. – Тошкент: “YANGI NASHR”, 2011. – Б. 97-112.
4. Naimov I. A coverage of the activities of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish // International Journal on Integrated Education. – Indonesia, 2021. Vol. 4. No. 5. – P. 36-45 (Impact Factor: SJIF 7.242).
5. Naimov I. Issues of religious tolerance in the work of Ahmad Donish “Meyor-ultadayun” // International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 02|2022. – P. 169-175.
6. Naimov I. Ahmed Daniş’in Tıp, Güzel Sanatlar ve Müziğe Ait Bilimsel Eserlerindeki Islahatçılık Fikirlerinin Yorumlanması // YENİ TÜRKİYE (Yeni Türkiye Stratejik Araştırma Merkezi). – Ankara, 126/2022. – V. 330-338.
7. <http://www.xabar.uz/uz/post/tojik-marosimlarining-oziga-xosliklari-artistsiz-toy-ovqatsiz>

---

<sup>1</sup> Hadya,sovg‘a